



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUV INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	416
Xamidova Soro	
Toshpulatova Laylo	
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....	423
Mariya Bekimbetova	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi	
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	431
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	443
Safarova Yulduz Abbos qizi	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIVAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH	448
Xusanov Shuxrat Burxonovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	454
Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи	
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES	461
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi	
HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV	467
Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI.....	473
Karimov Inomjon Ortikbayevich	
TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR.....	480
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ МЕСТНЫХ НАЛОГОВ И СБОРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	484
Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
IQTISODIY ADOLATNI TA'MINLASHNING SOLIQ-BUDJET MEXANIZMLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR, MEZONLAR VA BAHOLASH USULLARI.....	491
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ.....	499
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
ANALYSIS OF AGRICULTURAL EXPORT DEVELOPMENT TRENDS AND EXPORT GEOGRAPHY IN UZBEKISTAN	504
Qobilova Malika Uktamovna	
Usanova Feruza Zafar kizi	
Muratov Shukrullo Abduraimovich	



O'ZBEKISTON TURIZM TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	508
Khusniddin Egamnazarov	
IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNING OLDINI OLIHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH AMALIYOTI.....	516
Sarsengalieva Albina Askar qizi	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT PORTFELINING TARKIBIY TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	524
Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVINING HAJMIY VA SIFAT O'LCHAMLARI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK TAHLILI.....	533
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ICHKI TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOIYILLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	540
Muxtarov Botir Abdusattarovich	



ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ICHKI TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muxtarov Botir Abdusattarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Iqtisodiyot va turizm kafedrası katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi

E-mail: botir.muxtarov.1964@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar (IT, AI, Big Data) asosida ichki turizm bozorini rivojlantirishning tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida raqamlashtirish, shaxsiylashtirish, barqarorlik va integratsiyalashgan ekotizim kabi tamoyillar aniqlandi. Hududiy differensial yondashuv taklif etilib, O'zbekiston sharoitida ichki turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari ko'rib chiqildi. Natijalar milliy turizm siyosatini takomillashtirishga asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: ichki turizm, zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish, smart turizm, shaxsiylashtirish, barqaror rivojlanish, hududiy differensial yondashuv, innovatsion ekotizim.

Аннотация. В данной статье анализируются принципы и особенности развития рынка внутреннего туризма на основе современных технологий (IT, AI, Big Data). На основе теоретических и практических исследований определены такие ключевые принципы, как цифровизация, персонализация, устойчивое развитие и интегрированная экосистема. Предложен регионально-дифференцированный подход и рассмотрены механизмы повышения экономической эффективности внутреннего туризма в условиях Узбекистана. Полученные результаты могут служить основой для совершенствования государственной политики в сфере туризма.

Ключевые слова: внутренний туризм, современные технологии, цифровизация, умный туризм, персонализация, устойчивое развитие, регионально-дифференцированный подход, инновационная экосистема.

Abstract. This article analyzes the principles and distinctive features of developing the domestic tourism market based on modern technologies (IT, AI, and Big Data). Drawing on theoretical and practical research, it identifies key principles such as digitalization, personalization, sustainability, and an integrated ecosystem. A regional differentiated approach is proposed, and mechanisms for improving the economic efficiency of domestic tourism under the conditions of Uzbekistan are examined. The findings may serve as a basis for improving the national tourism policy.

Keywords: domestic tourism, modern technologies, digitalization, smart tourism, personalization, sustainable development, regional differentiated approach, innovative ecosystem.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotida turizmni rivojlantirishning ahamiyati shundaki, u valyuta tushumlari, bandlik, to'lov balansi va YalMga qo'shadigan hissani oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, daromadlarning o'sishi va millat farovonligini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Turizm jahon iqtisodiyotining eng yirik, yuqori daromadli va eng dinamik tarmoqlaridan biridir. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmni rivojlantirishda ko'plab muammolarga duch kelinmoqda. Ekoturizm rivojlangan mamlakatlar ekspertlari ekoturizmga iste'molchilar (mehmonlar) manfaatlari nuqtayi nazaridan qarab, ularning istaklari va hordiq chiqarish ehtiyojlarini hisobga oladilar. Qabul qiluvchi tomon (mezbon) turoperatorlar va tadqiqotchilarni esa, birinchi navbatda, olinadigan foyda va mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turizm qo'shadigan hissa qiziqtiradi.



Zamonaviy dunyoda xalqaro turizmga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: demografik (aholining hududiy taqsimlanishi, uning hajmi, urbanizatsiya); ijtimoiy-iqtisodiy (ishchi kuchining rivojlanish darajasi, sanoatlashtirish va ilmiy-texnik inqilob); ijtimoiy-psixologik (an'analarning ta'siri va muayyan xulq-atvor stereotiplarining mavjudligi); ekologik va tibbiy-biologik (doimiy yashash muhitining sifati va aholi salomatligi holati); tabiiy (har xil iqlim va landshaft sharoitlari, ekzotik flora va fauna, mineral suv manbalarining mavjudligi); siyosiy (xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalarni kengaytirish; tashqi iqtisodiy aloqalar va ichki siyosatning barqarorligi; davlatning ijtimoiy siyosati).

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar (IT, AI, Big Data) asosida ichki turizmni rivojlantirish raqamli platformalar, shaxsiylashtirilgan xizmatlar va qulaylikka asoslanadi. Bunda asosiy tamoyillar esa ma'lumotlar shaffofligi, foydalanuvchiga yo'naltirilganlik va innovatsion ekotizim yaratishdan iborat. Ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlari ichki bozorni avtomatlashtirish, virtual turizm va intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi ichki turizm bozorini rivojlantirish masalasining iqtisodiy nazariyada xizmatlar iqtisodiyoti, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot konsepsiyalari bilan uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida o'tkazildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarini (M. Porterning raqobat ustunliklari nazariyasi, F. Kotler, K. Lavlok va K. Gryonrusning xizmatlar iqtisodiyoti nazariyasi, UNWTO va OECD ekspertlarining "Smart Tourism" konsepsiyasi) tahlil qilish orqali asosiy tamoyillar va xususiyatlar aniqlandi [1,2,3]. Mahalliy olimlar (A. Vaxobov, Sh. Shodmonov, N. Jo'rayev, A. Ortiqov, M. Qosimova, D. Raxmonov) ishlarida ichki turizmning innovatsion rivojlanishi, hududiy infratuzilma va axborot texnologiyalari darajasi bilan bog'liqligi o'rganildi [4,5,6,7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil usullari orasida adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil va hududiy differensial yondashuv qo'llanildi. Ichki turizmning xalqaro standart tasnifi (SIKTA, 2003) asosida ekologik turizmning rekreatsion, iqtisodiy barqarorlik va madaniy merosni saqlash qoidalari ko'rib chiqildi.

Turizm sohasi turlarining xalqaro standart tasnifida (SIKTA, 2003) ichki ekologik turizmga quyidagi qoidalar asos qilib olingan: rekreatsion (dam olish) tabiiy hududlarning biologik xilma-xilligini saqlash; ekologik turizmga jalb etilgan mintaqalarning iqtisodiy barqaror rivojlanish darajasini oshirish; ekoturizm faoliyati ishtirokchilarining ekologik madaniyati darajasini ko'tarish; rekreatsion hududning etnografik maqomini saqlab qolish [8].

Yuqorida berilgan turli mulohazalar tahlili fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Ularda asosli mulohazalar mavjud bo'lib, ular birgalikda ekoturizm to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularda ekoturizm turizm industriyasining tabiat bilan mustahkam aloqaga ega, ixtisoslashgan hamda o'ziga xos boshqariladigan yangi sohasi ekanligi ta'kidlanmagan va hisobga olinmagan. Bu jihatlar, albatta, hisobga olinishi lozim deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan tadqiqotlarga asoslanib, ichki turizm xizmatlarini quyidagicha ta'riflashni taklif etamiz: "Ichki turizm – bu turizm sanoatining uzviy va tizimli tarkibiy qismi sifatida boshqariladigan ixtisoslashgan sohasi bo'lib, u tabiat va jamiyat resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq turizm va rekreatsiya faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Ichki turizmning maqsadlari ekologik ma'rifatni rivojlantirish, tabiat va ekotizimlarni o'rganish, ekologik madaniyat va jismoniy kamolotni oshirish, nafis landshaftlardan bahra olish va shifo topish, mahalliy aholi farovonligini va daromadlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi".

Mazkur atamaning ushbu keng talqini O'zbekistonda ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga ham asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu ma'noda, mazkur ta'rif ichki turizmning muhimligini anglash va milliy turizm siyosatining shakllanishiga yordam beradi.

Zamonaviy texnologik yechimlar turizm sohasida yangicha biznes-modellar va xizmat ko'rsatish formatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, turizm bozorini rivojlantirishda asosiy tamoyillar va xususiyatlarni aniqlash uchun ichki turizm bozori rivojlanishining asosiy tamoyillarini quyidagicha guruhladik (1-jadval).

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ichki turizmning tamoyillari va umumiy xususiyatlari mutanosibligi¹

Ichki turizm bozorining asosiy tamoyillarini	Ichki turizm bozorining umumiy xususiyatlari (mohiyati va amaliy ifodasi)
1. Texnologik integratsiya tamoyili	Ichki turizm bozorida raqamli platformalar, mobil ilovalar, elektron bron qilish va onlayn to'lov tizimlarining joriy etilishi xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshiradi. Bu jarayon turizm infratuzilmasining raqamlashuvi, xizmatlar shaffofligi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.
2. Sifat va individualizatsiya tamoyili	Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida turizm xizmatlarini iste'molchilarning individual ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtirish imkoniyati kengayadi. Onlayn platformalar orqali turistik marshrutlar, tur paketlari va qo'shimcha xizmatlarni personallashtirish ichki turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi hamda xizmat sifatiga bo'lgan talabni kuchaytiradi.
3. Raqamli marketing va kommunikatsiya tamoyili.	Ichki turizm bozorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish reklama, targ'ibot va kommunikatsiya jarayonlarini optimallashtiradi. Sotsial tarmoqlar, kontent-marketing, bloglar, inflyuenserlar hamda virtual ekskursiyalar orqali milliy turistik mahsulotlarni ilgari surish ichki turistlar oqimini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.
4. Barqarorlik va ekologik yondashuv tamoyili.	Ichki turizmni rivojlantirishda texnologik innovatsiyalar resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltiriladi. Bu xususiyat ichki turizm bozorining ekologik mas'uliyatligi, tabiiy va madaniy merosni saqlash hamda mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan uzviy bog'liq.
5. Inklyuzivlik va hududiy mutanosiblik tamoyili	Ichki turizm bozori aholining turli qatlamlari uchun sayohat imkoniyatlarini yaratish, chekka hududlar va kam rivojlangan mintaqalarning turizm salohiyatini ishga solish orqali hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlash xususiyatiga ega. Bu milliy iqtisodiyotda daromadlarni qayta taqsimlash va bandlikni oshirishga xizmat qiladi.
6. Institutsional hamkorlik va davlat qo'llab-quvvatlashi tamoyili	Davlat organlari, xususiy sektor va mahalliy aholi o'rtasidagi institutsional hamkorlik ichki turizm bozorining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Qonunchilik bazasi, imtiyozlar, subsidiyalar va raqamli davlat xizmatlari ichki turizmni milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida ichki turizm bozorining asosiy tamoyillari va uning umumiy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish va individuallashtirish, shuningdek, raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish ichki turizm bozorining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, barqarorlik va ekologik yondashuv tamoyili ichki turizmning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, madaniy merosni asrab-avaylashga hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Institutsional hamkorlik va davlat qo'llab-quvvatlashi esa ichki turizm bozorining tizimli rivojlanishi, hududiy mutanosiblik va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Umuman olganda, 1-jadvalda aks ettirilgan tamoyillar ichki turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllantirish, aholi bandligini oshirish va hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asosni ifodalaydi.

Ichki turizm bozorida texnologik rivojlanishning xususiyatlari quyidagicha ifodalanadi:

Ichki turistik sarflar mahalliy biznes va qishloq xo'jaligi sohalariga to'g'ridan to'g'ri pul oqimini ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Turizm texnologiyalari mahalliy madaniy meros va hududlarni kompleks ravishda taqdim etish imkonini beradi, bu esa ichki turizmning qiymatini va turistik salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali turistlar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi aloqa tezlashadi, ya'ni bron qilish, fikr bildirish va xizmat sifatini baholash jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Elektron platformalar va virtual xizmatlar orqali ichki turizm segmentlari tezkor tarzda kengayishi va yangi turizm mahsulotlari yaratilishi mumkin.

1 Muallif ishlanmasi.



Raqamli texnologiyalarni joriy etish soha raqobatbardoshligini oshirishda, O'zbekistonning turizm salohiyati bilan potensial sayyohlarni tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashda onlayn xizmatlar alohida o'rin tutadi. Odatda, turizm sohasida quyidagi onlayn xizmatlar keng tarqalgan:

- avia, temir yo'l, avtobus va avtomobil marshrutlari bo'yicha biletlarni onlayn usulda buyurtma qilish va sotib olish;
- turizm bo'yicha onlayn maslahat berish xizmatlari;
- avtomobillarni onlayn ijaraga berish xizmati;
- sayohatlarga, maxsus turlarga va ko'rgazmalarga buyurtmalar berish va ularni sotib olish bo'yicha xizmatlar;
- biletlar, turlar va turli xildagi sayohatlarning kalkulyatsiyasini elektron usulda taqdim etishning onlayn servislari;
- onlayn usulda mehmonxonalarni buyurtma qilish xizmatlari;
- shaharlar, muzeylar va ko'rgazmalarga virtual sayohatlar uyushtirish servislari va boshqalar.

Hududiy turizm sektorini raqamli iqtisodiyotga jalb qilish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- yangi biznes modellarini shakllantirishga olib keladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida turizm sektorini raqamlashtirish;
- turizm faoliyatini raqamlashtirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hududlarda turizm korxonalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish salohiyatining hududiy tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz hududlari o'rtasida kadrlar malakasi va turizm sohasidagi rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Bunday holat har bir hudud uchun individual yondashuv asosida zamonaviy va innovatsion rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqishni taqozo etadi. Faqat hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan differensial yondashuv turizm sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning barcha hududlarda teng rivojlanishini ta'minlash va mamlakatimizning turistik salohiyatidan maksimal foydalanish imkonini yaratadi. Tadqiqotlarga asosanib, yuqori darajali hududlarni innovatsion rivojlantirish, o'rta darajadagi hududlarni tizimli rivojlantirish, past rivojlangan hududlarni fundamental shakllantirish uslubiyati taklif etilgan (2-jadval).

2-jadval

Yuqori darajali hududlarni innovatsion rivojlantirish, o'rta darajadagi hududlarni tizimli rivojlantirish, past rivojlangan hududlarni fundamental shakllantirish uslubiyati

DARAJA	HUDUDLARNI RAQAMLASHTIRISH USLUBIYATI
Asosiy muammolar	- Xalqaro standartlarga mos kelmaslik - Raqamli texnologiyalar yetishmasligi - Innovatsion xizmatlar kamligi
I. YUQORI DARAJALI HUDUDLAR UCHUN USLUBIYAT  INNOVATSION RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm)	A) Xalqaro sertifikatlash dasturlari: - Dunyo miqyosidagi turizm standartlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, UNWTO, WTTC xalqaro sertifikatlari olish, Xalqaro mehmonxona zanjirlari bilan hamkorlik, Xorijiy ekspertlar bilan ishlash B) Raqamli transformatsiya: CRM tizimlari bilan ishlash ko'nikmalari, Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, Onlayn platformalar va mobil ilovalar ishlab chiqish, Big data tahlili va marketing avtomatizatsiyasi V) Liderlik dasturlari: Yuqori menejerlar uchun strategik boshqaruv, Xalqaro biznes-maktablar bilan hamkorlik, MBA dasturlarida ishtirok, Kreativ liderlik ko'nikmalari G) Innovatsion xizmatlar: Yangi turistik mahsulotlar yaratish, Virtual va dopolnennaya real'nost' texnologiyalari, Personallashtirilgan turizm xizmatlari, Barqaror turizm dasturlari
Chora - tadbirlar	- Xalqaro treninglarda ishtirok (yiliga kamida 2 marta) - Xorijiy ekspertlar bilan ishlash (oylik konsalting) - Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (CRM, AI platformalari) - Kreativ dasturlar o'tkazish (innovatsiya laboratoriyalari) - Benchmarking - eng yaxshi tajribalarni o'rganish
Asosiy muammolar	- Bazaviy ko'nikmalar yetishmasligi - Xizmat sifati past - Tillarni bilmaslik - Marketing va sotuv ko'nikmalari yo'qligi - Menejment tizimi zaif



II. O'RTA DARAJALI HUDUDLAR UCHUN USLUBIYAT, TIZIMLI RIVOJLANTRISH USLUBIYATI (Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Navoiy, Qoraqalpog'iston)	A) Bosqichli ta'lim tizimi: Birinchi bosqich: Turizm asoslari (3 oy) Ikkinchi bosqich: Ixtisoslashuv (6 oy), Uchinchi bosqich: Yuqori malaka (1 yil) B) Amaliy treninglar: 70% amaliyot, 30% nazariya prinsipi, Ishlab chiqarish joylarida o'qitish, Real muammolar ustida ishlash, Mijozlar bilan bevosita muloqot treninglari V) Til o'qitish dasturlari: Ingliz tili (asosiy), Rus tili (SNG turistlari uchun), Nemis/Fransuzcha tili (Yevropa turistlari uchun), Turizm leksikasi G) Mentorlik tizimi: Tajribali mutaxassislar rahbarligi, Yuqori darajali hududlardan ekspertlar, Oylik ko'rsatmalar va baholash, Tajriba almashish dasturlari
Chora-tadbirlar	- Xududiy o'quv markazlari ochish (har bir viloyatda) - Amaliy stajirovka dasturlari (3-6 oy) - Til kurslari tashkil etish (haftada 3 marta) - Ishlab chiqarish bilan hamkorlik (dual ta'lim) - Malaka oshirish dasturlari (yiliga 2 marta)
Asosiy muammolar	- Kadrlar tanqisligi - Asosiy ko'nikmalar yo'qligi - Maosh darajasi past - Infratuzilma yetishmasligi - Turizm tushunchasi shakllanmagan
III. PAST DARAJALI HUDUDLAR UCHUN USLUBIYAT FUNDAMENTAL RIVOJLANTRISH USLUBIYATI (Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo)	A) Boshlang'ich ta'lim dasturlari: Turizm sohasi haqida umumiy ma'lumotlar, Mijozlar bilan muloqot etish asoslari, Xizmat ko'rsatish madaniyati, Gigiena va xavfsizlik qoidalarini B) Motivatsiya dasturlari: Turizm sohasining kelajagi haqida ma'lumot, Muvaffaqiyatli xodimlar tajribasi, Karyera o'sish imkoniyatlari, Moddiy rag'batlantirish tizimi V) Moliyaviy stimullarlar: Boshlang'ich ish haqi kafolatlash, Malaka oshirish uchun grantlar, Mikrokredit dasturlari, Oila biznesi rivojlantirish G) Infratuzilma qurish: Qishloq o'quv markazlari, Mobil trening guruhlarini, Onlayn ta'lim platformalarini, Asosiy jihozlar bilan ta'minlash
Chora-tadbirlar	Qishloq o'quv markazlari (tuman markazlarida) Mobil trening guruhlarini (oyiga 2 marta) Grant dasturlari (yoshlar uchun) Oila biznesi rivojlantirish (agroturizm) Asosiy ko'nikmalar o'rganish kurslari (2 oy)

Nazariy va amaliy tadqiqotlarga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar asosida ichki turizmni rivojlantirish tamoyillari quyidagilarni ifodalaydi:

- Turistik xizmatlarni onlayn bron qilish, to'lov tizimlari va masofaviy xizmatlarni joriy etish.
- AI va Big Data orqali sayyohlarning xohish-istaklariga mos xizmatlarni taklif qilish.
- Turistik obyektlar, mehmonxonalar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning real vaqt rejimida mavjudligi.
- Transport, joylashtirish, ovqatlanish va ko'ngilochar maskanlarni yagona raqamli platformada birlashtirish.
- Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari doirasida xavfsizlik tizimlarini zamonaviy texnik reglamentlar asosida mustahkamlash.

- Ichki turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari:
- Turistik obyektlarni masofadan turib o'rganish imkoniyati.
- "Aqlli" shaharlar va manzillar konsepsiyasini joriy etish.
- Ichki yo'nalishlarni ommalashtirishda raqamli platformalardan faol foydalanish.
- Sayyohlar uchun qulay mobil ilovalar (gidlar, xaritalar, to'lovlar) yaratish.
- Ichki sayyohlar oqimini tahlil qilib, yangi yo'nalishlarni (ekoturizm, agroturizm) rivojlantirish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida ichki turizm bozorining asosiy tamoyillari va uning umumiy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish va individuallashtirish, shuningdek, raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish ichki turizm bozorining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Barqarorlik va ekologik yondashuv tamoyili ichki turizmning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, madaniy merosni asrab-avaylashga hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Institutsional hamkorlik va davlat qo'llab-quvvatlashi esa ichki turizm bozorining tizimli rivojlanishi, hududiy mutanosiblik va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.



Xorijiy va mahalliy olimlar qarashlarini umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, zamonaviy texnologiyalar ichki turizm bozorini rivojlantirishda xizmatlar iqtisodiyoti nazariyasi asosida iste'molchi qiymatini oshiradi; innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq yangi turizm mahsulotlarini shakllantiradi; raqobat ustunliklari nazariyasi asosida hududiy turistik bozorlarni diversifikatsiya qiladi. Ichki turizm bozorida texnologik rivojlanishning xususiyatlari mahalliy iqtisodiyotga ta'siri, madaniy va hududiy integratsiya, texnologik-iqtisodiy muloqot, masshtablanish va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish soha raqobatbardoshligini oshirishda, turizm salohiyatini potensial sayyohlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn xizmatlar (avia, temir yo'l biletlari, mehmonxona bronlari, virtual sayohatlar) keng tarqalgan. Hududiy turizm sektorini raqamli iqtisodiyotga jalb qilish yangi biznes modellarini shakllantirish va davlat dasturlarini amalga oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Hududlarda turizm korxonalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish salohiyatining tahlili mamlakatimiz hududlari o'rtasida kadrlar malakasi va turizm sohasidagi rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday holat har bir hudud uchun individual yondashuv asosida zamonaviy va innovatsion rivojlantirish uslubiyanini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida ichki turizm bozorini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki milliy madaniy boyliklarni saqlash va taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishni ham ta'minlaydi. Bu sohada qo'llanilayotgan texnologiyalar bozorni raqobatbardoshlik, sifat va barqarorlik tamoyillari asosida boshqarish imkonini beradi. Ichki turizm bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. *Competitive Advantage*. New York: Free Press, 1998.
2. Kotler, P. *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson Education, 2017. – P. 155–163.
3. UNWTO, OECD. *Smart Tourism Destinations*. Madrid, 2021.
4. Vaxobov A.V., Shodmonov Sh.Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 135–145 b.
5. Ortiqov A.A. *Xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanish*. – Toshkent, 2020.
6. Qosimova M.A. *Turizm iqtisodiyoti*. – Toshkent: Fan, 2019. – 75–78 b.
7. Raxmonov D.J. *Ichki turizmni rivojlantirishning institutsional asoslari*. – Toshkent, 2021. – 89–92 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>